

Journal of Social Research in Uzbekistan SJIF 2023: 6.831**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**MARRIAGE ALSO SERVED AS A "POLITICAL AGREEMENT" (OR?!): LOOK AT HISTORY**

Kuvonchbek S. Koshboyev

junior research fellow

Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

E-mail: khajutbekqoshboyev@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: marriage, political agreement, treaty, alliance.

Received: 13.06.23

Accepted: 15.07.23

Published: 17.07.23

Abstract: Nowadays, most of us dream of marriage as building a family based on a mutual agreement between two people of the opposite sex, who will be friends in life, happy in good times, companions in bad times, and sympathizers. It would not be wrong to say that the main goal is to leave offspring and continue their generations. However, if we look at the history, marriage is not only the task of procreation and continuation of one's descendants, but also the task of political agreement between rulers, princes, representatives of the upper class, i.e. peace and the guarantee of the alliance between the two. we can see. This article focuses on these aspects.

NIKOH "SIYOSIY KELISHUV" VAZIFASINI HAM O'TAGAN (MI?!): TARIXGA NAZAR

Quvonchbek S. Qo'shboyev

kichik ilmiy xodim

O'zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti
Toshkent, O'zbekiston

E-mail: quvonchbekqoshboyev@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nikoh, siyosiy kelishuv, shartnoma, ittifoq.

Annotatsiya: Nikoh deganda hozirgi kunda ko'pchiligidan hayotda do'st, yaxshi kunimizda xushnud, yomon kunimizda esa yelkadosh, hamdard bo'ladigan ikki qarama qarshi jinsdag'i insonlarning o'zaro kelishuvi asosida oila qurishi tushuniladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa o'zlaridan nasl qoldirish va avlodlarini davom ettirish desak xato

bo‘lmaydi. Biroq, tarixga nazar solar ekanmiz, nikoh nafaqat nasl qoldirish va o‘z avlodlarini davom ettirish vazifasini, shuningdek, hukumdarlar, shahzodalar, yuqori tabaqa vakillari o‘rtasidagi siyosiy kelishuv ya’ni sulk va ikki o‘rtada tuzilgan ittifoqning kafolati vazifasini ham o‘taganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada ana shu jihatlarga e’tibor qaratiladi.

БРАК ТОЖЕ СЛУЖИЛ "ПОЛИТИЧЕСКИМ СОГЛАШЕНИЕМ" (ИЛИ?!): ПОСМОТРИТЕ НА ИСТОРИЮ

Кувончбек С. Кошибоев

младший научный сотрудник

Институт истории Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: khajutbekqoshboev@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: брак, политическое соглашение, договор, союз.

Аннотация: В наши дни большинство из нас мечтают о браке как о создании семьи на основе взаимного согласия двух людей противоположного пола, которые будут друзьями в жизни, счастливыми в хорошие времена, товарищами в плохие и сочувствующими. Не будет ошибкой сказать, что главная цель – оставить потомство и продолжить свои поколения. Однако, если обратиться к истории, брак является не только задачей продолжения рода и продолжения своего потомства, но и задачей политического соглашения между правителями, князьями, представителями высшего сословия, т.е. мира и залогом союза между двумя мы можем видеть. Данная статья посвящена этим аспектам.

KIRISH

Tarixdan ma’lumki, O‘rta Osiyo hududida ham ko‘plab hukmdorlar o‘tgan va ular o‘zi boshqargan davlatning xavfsizligini mustahkamlash, aholisining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida, ichki va tashqi siyosatda turli xil diplomatik usullardan foydalanishgan. Ana shunday diplomatik yo‘llardan biri nikoh bo‘lgan. Nikoh ikki hukmdor yoki bir-biriga bo‘ysunishni istamagan shaxslar o‘rtadagi siyosiy kelishuv vazifalarini ham bajargan va bu odatda mag‘lub bo‘lgan yoki bo‘ysunishni istagan tomonning g‘olib bo‘lgan tomonga qiz uzatishi bilan amalga oshirilgan.

Bundan bir necha ming yillar muqaddam O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan massaget qabilalari haqida ma’lumot beradigan Gerodotning “Tarix” asarida forslarning shohi Kir II massaget qabilalari

bilan jang qilishidan oldin, ularning o'sha vaqtagi hukmdori va malikasi To'marisga sovchi yuborib, undan qo'lini so'raganligi va o'zining nikohiga olmoqchiligi qayt etiladi. Bunda Kir IIning asl maqsadi To'maris bilan nikoh qurib, umrguzaronlik qilish emas, aksincha bu yo'l orqali massaget qabilalarini bo'ysundirib, uming hududlarini o'ziniki qilib olish edi. Biroq, bu nikohning ramziy ma'nosini tushinib, ushbu sovchilarga rad javobini berib, forslarning shartini qabul qilmay, ularga qarshi jang qilgan va g'olib bo'lgani To'marisning naqadar oqil va dono ayol bo'lganligini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

O'rta asrlarda ham hukmdorlar tomonidan nikohdan diplomatik maqsadlarda ham foydalingan bo'lib, bu o'z navbatida davlatlar o'rtasidagi siyosiy kelishuvning "garovi" vazifalarini o'tagan. Jumladan, g'aznaviyalar sulolasining yirik vakili Sulton Mahmud qoraxoniylar bilan o'zaro tinchlik aloqalarni o'rnatish, ikki o'rtada do'stlik rishtalarini mustahkamlash maqsadida qoraxoniylarga sulh shartnomasini taklif qiladi va ushbu shartnomaning eng muhim sharti sifatida ikki o'rtada nikoh shartnomasini tuzilishi aytildi. G'aznaviy hukmdorning qoraxoni hukmdoriga yuborgan bir maktubida quyidagicha yoziladi: "...ikkita nikoh shartnomasini tuzamiz, biri o'zim uchun, ikkinchisi o'g'illarimdan biri Abul-Fath Movdud uchun. Birinchi kelin, ya'ni o'zim uchun tayin qilingani xon oilasidan bo'lgan bokira qiz bo'lishi, o'g'lim uchun esa xonning o'g'li Bug'rateginning farzandi bo'lishi va ikkisi ham ota va ona tomonidan xon avlodidan bo'lishi shart..." deya qayt etiladi.

Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylar tomonidan yozilgan "Zafarnoma"laridagi ma'lumotlarda Amir Temurning Xorazmni bosib olish uchun harbiy qo'shin bilan yurish qilishi, qamal davomida, o'sha vaqtida Xorazmni boshqarayotgan so'fiylar sulolasi vakili Husayn so'fiyning vafot etishi va uning o'rnini egallagan Yusuf so'fiyning Amir Temur bilan tuzgan tinchlik shartomasining asosiy sharti sifatida Oq so'fiyning qizi Sevinbekani (Xonzoda nomi bilan mashhur Q.Q) temuriy shahzoda Jahongir Mirzoga nikohlab berilishi kabilar qayt etilgan. To'g'ri, bu nikohdan yana boshqa maqsad ham ko'zlangan edi ya'ni o'sha davrlarda Chingizzon avlodlari bilan qarindoshlik rishtalarini bog'lash katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Xonzoda ona tomonidan O'zbekxonga (Chingizzon avlodi) borib taqalardi va Jahongir Mirzoning unga uylanishi "ko'ragon", (mo'g'ulcha "go'ragon" – "xon kuyovi") faxrli laqabiga erishishiga olib kelgan. Biroq, aynan mana shu nikoh shartining qabul qilinishi evaziga Amir Temur qal'a qamalini to'xtatib, Samarqandga qaytib ketadi va aynan mana shu "siyosiy" kelishuv natijasida ma'lum muddat ikki o'rtada tinchlik ham hukm suradi.

Amir Temur 1386-yilda Avfg'oniston va fors hududlariga qo'shin tortadi. U vaqtida Janubiy fors. Isfaxonda – muzaffariylar hukmron edi. Uning boshlig'i Shohshujo oqil va mutabbir odam bo'lib, o'zining noziklashgan o'g'lonlari bilan Movarunnahrning tajribali jangchilariga qarshi chiqishni lozim ko'rmaydi. U o'z ixtiyori bilan taslim bo'lib, itoatkorlik belgisi sifatida o'z qizini marhum Jahongir mirzoning o'g'li Pirmuhammadga nikohlab bergenligi manbalarda qayt etilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, shunday vaqtlar bo‘lganki, birgina nikoh natijasida ko‘plab insonlarning hayoti saqlab qolningan. 1501-yildagi Saripul jangida Bobur Mirzo Shayboniyxonidan mag‘lub bo‘lib Samarqandga chekinishi va Shayboniyxon tomonidan qal’aning uzoq muddat qamalda tutilishi ko‘plab manbalarda batafsil yoritilgan. Biroq, nafaqat Z.M. Boburning balki butun Samarqand ahlining omon qolishiga ikki hukmdor o‘rtasidagi siyosiy kelishuv sabab bo‘lganligi va bu kelishning sharti Xonzoda Begimning (Boburning opasi) Shayboniyxon ga nikohlanishi biroz e’tibordan chetda qoldirilgan. Z.M. Bobur ham o‘zining “Boburnoma” asarida bu haqida batafsil yozishni istamagandek tuyiladi. Muhammad Solih esa o‘zining asarida ushbu kelishuv shartini quyidagicha yozadi:

- 1. Aylayin shart sening boshing uchun,*
- 2. Bo ‘lma g‘amnok qarindoshing uchun.*

3. Z.M. Bobur ushbu shartni qabul qiladi va opasini Shayboniyxon nikohiga kiritib, o‘zi esa ahli oilasi va tarafdarlari bilan Samarqandni tashlab chiqib ketadi. Bundan aynan nikoh ikki tomonning siyosiy kelishuvini ta’milaganligini ko‘rshimiz mumkin. Shuningdek, o‘sha davrlarda hukmdorlar, asosan, aslzoda malikalarga uylanishga harakat qilishgan. Boisi ularni nikohiga olish hukmdorlarning nufuzini oshirgan, qolaversa, nufuzli sulola vakillari xonadoniga kuyov bo‘lish hukmdorlar uchun ancha manfaatli bo‘lgan. Keyinchalik ularning nikohidan dunyoga kelgan shahzodalar ham har taraflama aslzoda bo‘lishgan. Ehtimol, shu sabab ham Shayboniyxon ushbu shartni o‘rtaga tashlagandir.

Nikoh ikki dushman yoki ittifoqdoshlar o‘rtasida qon-qarindoshlik rishtalarini bog‘lash va o‘rtadagi adovatni yumshatishning samarali usullaridan biri ham bo‘lgan. Qo‘qon xoni Norbo‘tabiyning eng azaliy dushmani bo‘lmish Idrisqulibiy bilan o‘rtalaridagi kuchli adovat urug‘i aynan nikoh sabab ya’ni Idrisqulibiy o‘z qizini hukumdorga turmushga berishi bilan barham topgan. Mang‘itlar sulolasining eng ko‘zga ko‘ringan vakili Amir Nasrulloh bilan Shahrisabz kenagaslari o‘rtasidagi azaliy qarama-qarshiliklar, uzoq muddat davom etgan. Muhammad Hakimxonning “Muntahab ut-tavorix” asarida qayt etilishicha, 1835-36 yili amir Nasrulloh Shahrisabz tomona lashkar tortadi. Kitob shahriga ikki farsaxlik yerdagi Qo‘yqonyo‘g‘och mavzesida qo‘sish tashlaydi. Ertasi kuni ikki tomon o‘rtasida elchilar bordi-keldisi boshlanib, yarash so‘zi oraga solinadi. Amir Nasrulloh kelishuv sharti sifatidan kenagaslari boshlig‘i Donyol otaliqning qizini o‘ziga so‘raydi va ikki o‘rtada tinchlik sulhi tuziladi. Amir Nasrulloh shu bilan Buxoroga qaytib ketdi va bu tomondagilar to‘y tayyorgarligini ko‘rshga tushishadi. Bir necha kundan so‘ng Ibrohimbiy mang‘it Buxorodan to‘ylik keltiradi va amir Nasrullohning vakili sifatida qizni ham hijob ichiga olgan ko‘yi cheksiz izzat-ikrom bilan Buxoro sari yuzlanadi.

XULOSA

Manbalarda ko‘rishimiz mumkinki, garchi ikki tomonning o‘zaro siyosiy kelishuvi vazifasini o‘tash uchun tuzilgan nikohlar ham katta to‘yu tomosha bilan xalqqa e’lon qilingan. Jahongir Mirzoni Xonzoda Begimga nikohlanishi juda katta dabdaba bilan amalga oshiriladi va hatto hozirgi kunda, ayrim insonlar tomonidan yevropadan kirib kelgan deya qaraladigan to‘ylardagi pul sochish jarayonlari, kelin tomonning o‘zining qimmatbaho sepi bilan kelish odatlari ham kuzatiladi.

XIV – XVI asrlarda hokimyat tepasiga chiqqan shaxslar o‘zlarining hokimyatlarni mustahkamlash va legitimligini ya’ni qonuniyligini ta’minalash uchun aslzoda malikalarga uylanishga intilishgan bo‘lsa, XVIII – XIX asrlarda bunga unchalik ham ehtiyoj bo‘limgan, shunga qaramasdan, mag‘lub tomon o‘z qizlaridan birini g‘olib tomonga nikohlanish odati saqlanib qolgan va bundan o‘sha davrlarda ham nikohdan ikki tarafning siyosiy kelishuvi, o‘zaro do’stlik ittifoqi vazifasini o’tagan degan xulosa kelib chiqadi. Nikohdan faqatgina naslni davom ettirish, o‘zaro oila qurib umrguzaronlik qilish uchungina emas, balki diplomatik vositalardan biri sifatida ham foydalanishganligini, shuningdek, bu yo‘lda nikohning “ramziy” ma’noga ega bo‘lganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. Abu’l-Fazl Beyhaqi. History of Beyhaqi. (The History of Sultan Mas’ud of Ghazna, 1030-1041). Ilex foundation series. 2011. Volume I. Pages 305.
2. Арминий Вамбери. Бухоро ёхуд Моваруннахр тарихи. –Т: Info Capital Group, 2019.-Б.51
3. Мухаммад Солих. Шайбонийнома. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1989. -Б.103
4. Мухаммадиёр ибн Араб Катагон. Мусаххир ал-билод. –Т.: Янги аср авлоди, 2009. -Б.81
5. Муҳаммад Ҳакимхон.Мунтахаб ат-таворих: (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) // форс-тожик тилидан тарж., муқаддима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.Воҳидов. - Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 72.
6. Ниёз Муҳаммад Ҳўқандий. Ибратул ҳавоқин; (Тарихий Шахруҳий): Худоёрхон авлодлари / Шоҳруҳбек Умаров. - Т.: «Turon Zamin ziyo». 2014. – Б. 363
7. Низомиддин Шомий. Зафарнома // Форс тилидан ўгирувчи - Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир - Асомиддин Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи - Ҳабибулло Караматов ва бошқалар // Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б. 94-95.
8. Herodotus. The Histories. Translated by Georgea Rawlinson. Copyright © 2013 by Roman Roads Media, LLC Roman Roads Media. – 90 p.

9. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Моваруннаҳр тарихи. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. - Б. 27
10. Яздий, Шарафиддин Али. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад. Ҳ. Бобобеков: Масъул мухаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва маатбачилар гурухи: И. Шоғуломов ва бошқалар // Т.: Шарқ, 1997. – Б. 74;
11. Захириддин Мухфимад Бобур. Бобурнома.-Т.: O‘qituvchi, 2008. -Б.83